

## SHAHAR TRANSPORT SHOVQINI VA INSON ORGANIZMIGA TASIRINI GIGIENIK BAHOLASH

**Yo'ldosheva Sarvinoz Sayfiddin qizi**

SamDTU Tibbiy profilaktika fakulteti 1-kurs talabasi

**Baratova Ra'no Shomuratovna**

SamDTU Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasи (Ilmiy rahbar)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada shaharlarning asosiy muammolaridan biri texnik shovqin va uning aholiga ta'siriga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlar natijasi yoritilgan. Bunda Samarqand sh. ko'chalaridagi transport shovqini darajasi dB aniqlangan va DavStandarti bilan qiyoslangan.*

**Kalit so'zlar.** Samarqand, Dahbet, Rudakiy, Mirzo Ulug'bek, avtomashina, shovqin, dB, vibrometr, tovush darajasi, infratovush, ultratovush.

**Dolzarbliyi.** Hozirgi vaqtida avtomashinalarning shovqini dolzarb bo'lib, harbir aholi bu muammoga duch kelmoqda. Bu birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi, shovqinning bilan ifloslanishiga yordam beradigan transport yo'naliishlari, ishlab-chiqarish va komunal obyektlari va boshqa texnik tuzulmalarning rivojlanishi bilan bog'liq. Adabiyotdagi manbalarga ko'ra shaharlarning asosiy ko'chalarida maksimal shovqin darajasi 85-90dB deb qayd etilgan.

**Tadqiqot maqsadi:** Shahar transport shovqining inson organizmiga ta'siri va uning oqibatlarini o'rghanish.

**Material va usullar:** Shovqinning xavfli darajasini va uning ta'sirini aniqlash uchun "Ovoz o'lchagich" maxsus moslamasi bilan desibellarda dB o'lchanadi.

Shovqin o‘lchagich, vibrometr, tovush darajasini o‘lchash, tovush, infratovush va ultratovush diapozonida tovush va chastota tahlili, tebranish tezlashuvi darajalari, umumiyligi va mahalliy tebranish diapozonlarida chastota tahlili uchun mo‘ljallangan. Shovqin o‘lchovlari turar joy binolarida amalga oshirildi. Samarqand shahrining (turar joy) massivlarida. O‘lchovlar uchun yerning uchaskalari olindi. O‘lchovlar turli xil intinsivlik va transport vositalarining harakat zinchligi bilan amalga oshirildi.

**Natijalar:** O‘lchovlar to‘rtta asosiy nuqtada amalga oshirildi. Dagbitiskiy, Rudakiy, Mirzo Ulug‘bek ko‘chalarida hamda Avtovakzal joylashgan joyda o‘lchov ishlari olib borildi. Ushbu ko‘chalarning shovqini ovozi o‘lchanganda ko‘rsatgich me’yordan yuqori bo‘lgan. GOSTga ko‘ra avtomobil transporti uchun shovqin standarti 60-65 dBni tashkil qiladi. Ammo dagbitiskiy ko‘chasida shovqin ko‘rsatgichi 80-85 dB, Rudakiy ko‘chasida 75-80 dB, Mirzo Ukug‘bek ko‘chasida 70-81 dB, Avtovakzal hududida 72-82 dBga yetdi. Dagbitiskiy ko‘chalarida va Avtovakzal hududida yo‘lovchilar o‘tish paytida shovqin darjasasi 68-70 dBga yetdi.

**Xulosa:** So‘rov o‘tkazilganda Shahar aholisi uchun o‘zini o‘zi asrash, asabiylashish va tashvishlanish kabi hodisalar odatiy holga aylangani aniqlandi. Shovqin inson organizmiga stress omili sifatida qabul qilinib u yoli bu tasirida ruhiy holatga tasir qiladi va shu jumladan aqliy faoliyatga ham tasir qiladi. Uzoq muddatli shovqin tasirida bosh og‘rig‘I, ko‘ngil aynishi, bosh aylanishi paydo bo‘ladi. Yuqori shovqin inson organizmiga salbiy ta’sir qiladi. Misol uchun: shovqinning ta’siri eshitish funksiyasing yomonlanishiga olib kelishi mumkin, bu nafaqat eshitishning charchashiga balki eshitish qobiliyatning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, binolarda transport shovqin darajasini pasaytirishda asosiy vositalarni tog‘ri tanlash va ularni tashqi o‘rab turgan tuzulmalarini (birinchi navbatda, derazalar) tedishli akustik dizaynini tog‘ri tanlash lozim. Ovoz o‘tkazmaydigan xususiyatlar peneratsion shovqinni maqbul darajaga kamaytirishni ta’minalash kerak. Antropogen va texnogen (ham kimyoviy ham fizik) ifloslanishni kamaytirish uchun yaxshil maydonlarni ekish kerak. Avtomobil shovqinini kamaytirish uchun yer osti yo‘llarini tashkil qilish kerak.

**REFERENCES**

1. *Abdumuminova R. N., Sh B. R., Bulyaev Z. K. On The Importance Of The Human Body, Nitrates.*
2. *Boysin K. et al. Influence of Xenobiotics on Organisms and Methods of their Detoxification //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 81-84.*
3. *Khitaev B. A. et al. Hematological Indicators under the Influence of Zinc Sulfate in the Experiment //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 77-80.*
4. *Mahmudova M. X. et al. Assessment of the hidden threat of excessive salt into the body due to the use of bakery products in Uzbekistan.*
5. *Rana Shomuratovna Baratova. (2023). The Importance Of A Healthy Lifestyle In Maintaining The Health Of The Population. Eurasian Research Bulletin, 17, 236–240. Retrieved from https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/3441*
6. *Tuxtarov, B., R. Baratova, and Z. Bulyaev. "IF THE SOIL IS HEALTHY." InterConf (2021).*
7. *Клиническая характеристика хронических расстройств питания различного генеза у детей первых двух лет жизни / Н. К. Аскарова, Д. Ж. Рахимова, Х. А. Курбанова [и др.] // Научный аспект. – 2020. – Т. 2, № 1. – С. 259-264. – EDN HGZJFM.*
8. *Наимова, З. С. ТАКСОНОМИЯ ОСНОВНЫХ КАТЕГОРИЙ В УСВОЕНИИ УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА ПО ПРЕДМЕТУ БЕЗОПАСНОСТЬ ЖИЗНЕНДЕЯТЕЛЬНОСТИ / З. С. Наимова, Р. Ш. Баратова. — Текст : непосредственный // «СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ» МЕЖДУНАРОДНАЯ УЧЕБНО-НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ «ТИББИЙ ТАЪЛИМНИНГ ЗАМОНАВИЙ ГОЛАТИ. — Бухара, Узбекистан : І«ISTIQLOL NASHRIYOTI», 2018. — С. 179.*

9. Саъдинов П. и др. Клинико-эпидемиологическая характеристика стафилококковых энтероколитов у детей раннего возраста //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 151-152.
10. Уралов У., Баратова Р., Раджабов З. УЛУЧШЕНИЕ САНИТАРИИ ПИТЬЕВОЙ ВОДЫ //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 176-179.
11. Шайкулов, Х. Ш. "Антибиотикочувствительность гемолитических *E. coli*, выделенных от детей больных эшерихиозом." Молодой ученый.–2023 4.451 (2023): 489-491.